

Makedoniyalik Aleksandrning harbiy yo'nalishlari.

Ro'zimov Umidjon Zaripboy O'g'li

Urganch Davlat Universiteti

Ijtimoiy-Iqtisodiy Fanlar fakulteti

Tarix (mintaqalar va yo'nalishlar bo'yicha)

yo'nalishi 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola Aleksandrning hayoti va umri davomida yuzaga keltirgan davlati haqida qisqacha ma'lumot beradi. Bu maqola Aleksandr Makodoniskiyning tarixini umumlashtirish uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga Aleksandr haqida ma'lumotlarga ega bo'lish uchun qisqacha asos bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *Makedoniya, Makedoniyalik Aleksandr, Filipp II, Sharqqa yurish, satraplik, O'rta Osiyo, Spitamen.*

Аннотация: *В данной статье представлен краткий обзор жизни Александра и государства, созданного им при жизни. В данной статье обобщается история Александра Македонского. В то же время это будет кратким основанием для получения информации об Александре.*

Ключевые слова: *Македония, Александр Македонский, Филипп II, поход на Восток, сатрапия, Средняя Азия, Спитамен.*

Abstract: *This article provides a brief overview of Alexander's life and the state he created during his lifetime. This article serves to summarize the history of Aleksandr Makodonisky. At the same time, it will be a brief basis for having information about Alexander.*

Key words: *Macedonia, Alexander the Great, Philip II, March to the East,*

satrapy, Central Asia, Spitamen.

Makedoniya Balqon yarim orolining shimolida joylashgan qadimiy o'lkalardan biri hisoblanadi. U juda qulay geografik o'rniga ega bo'lib, tog'lik va tekislik qismlariga bo'linadi. Miloddan avvalgi 359-yilda Makedoniya taxtiga Fillip II o'tiradi. U qator islohotlar o'tkazib, Makedoniya davlati va qo'shinlarni ancha kuchaytirdi. Makedon askarlar xanjar, 2-6 metrdan iborat nayza, qalqon dubulg'a va zirxli kalta harbiy kiyim bilan qurollantirildi. Filipp II Xeroniya jangidan keyin yunon shahar davlatlarini xonavayron qilmay, ularni erkin deb e'lon qiladi. Filipp II vafotidan so'ng taxtga uning 20 yoshli o'g'li Iskandar (miloddan avvalgi 336-323) o'tiradi. Keyinchalik u butun Sharqqa Iskandar Zulqarnayn nomi mashhur bo'lib ketgan. Miloddan avvalgi 334-yilda Sharqqa (Eron) ga yurish boshlaydi (birinchi bosqich). Bu boshlangan urush otasi Fillip II davridayoq boshlangan bo'lib, uning o'limi tufayli to'xtab qolgandi. Aleksandr qo'shinida sarkardalardan Antipart, Parmenion, Ptalamey Lag va boshqa, shuningdek 30 mingga yaqin piyoda jangchi, 5 ming otliq, yengil qurollangan yordamchi otryadlar va 160 ta kema bo'lgan. Aleksandr Eronning markaziy shaharlari - Bobil, Suza, Persepol, Ekbatana va Misrni egallagan. Miloddan avvalgi 331- yilning bahorida Sharqqa yurishning ikkinchi bosqichi boshlanadi. Dajla daryosida uzoq bo'lmagan Gavgemela qishlog'i yaqinida Iskandar 1-oktabr kuni fors qo'shini bilan hal qiluvchi jang bo'ldi. Bu og'ir jangda Iskandar go'lib chiqib uning raqibi Doro III Midiyaga chekindi. Aleksandr Granik (miloddan avvalgi 334), Iss (miloddan avvalgi 333) va Gavgemela (miloddan avvalgi 331) janglarida Doro III qo'shinlarini yenggan. Iskandar qo'shinlari hech qanday qiyinchiliklarsiz jadallik bilan butun Mesopatamiyani bosib oldi, Suza shahri va ahamoniylar davlatining markaziy hududlariga kirib keldi. Mil. avv. 330-yili Aleksandr Persepol saroyini yondirishi bilan Forslar ustidan qilgan g'alabasiga ramziy tus berdi. Bu vaqtda Baqtriya satrapligiga chekingan Doro III o'z yaqinlari tomonidan o'ldirildi. Aleksandr Makedonskiyning keyingi yurishalari O'rta Osiyoga qaratildi. Mil. avv 329-yildi Aleksandr Amudaryodan o'tib O'rta O'siyoga

kirdi, bu yerda mahalliy xalqning qattiq qarshiligiga uchradi. Spitamen boshliq sak massagetlar uch yil davomida Iskandar qo'shinlariga qattiq qarshi turdilar. Noiloj qolgan Aleksandr mahalliy zodagonlarni sovg'a salom bilan o'z tomoniga o'g'dirib olishga harakat qildi. Natijada u So'g'd hokimi Oksiarning qizi Raksana (ba'zi manbalarda Ravshanak) ga uylandi. Rivoyatga ko'ra Aleksandr O'rta Osiyoda o'z tayanch nuqtasi sifatida 12 ta shahar quradi. Tarixda ma'lum bo'gan hozirda Xo'jand shahri yaqinida Iskandariya Esxota (Uzoqdagi Iskandariya) shahri, Afg'onistonda Hirot yaqinida Iskandariya Ariya kabi shaharlar shular jumlasidandir. Miloddan avvalgi 327-yilda Aleksandr Hindikush tog'lari orqali Hindistonga o'tdi. Shimoliy Hindistondagi Gidas daryosi bo'yida Aleksandr qo'shinlari Panjob hukmdori Por qo'shinlari bilan to'qnashib, o'zining oxirgi galabasiga erishdi. (mil. avv. 326-yil). To'satdan Aleksandr qo'shinlari yurishdan to'xtab, bo'ysunmay qo'ydi. Ikki kunlik muzokara;lrndan so'ng Aleksandr yon berishga majbur bo'ldi. Vatanga qaytish to'g'risida buyruq berildi. Aleksandr qo'shinlarining qaytishi 2 yilga cho'zildadi. Bir qismi dengiz orqali, qolgan bir qismi esa quriqlik orqali qaytishdi. Qo'shinning har ikkal qismi mil. avv. 324-yilda Bobilda uchrashdilar. Makedoniyaga qaytishni istamagan Aleksandr o'z mamlakatining poytaxti sifatida Bobilni tanladi. Makedoniyalik Aleksandr yurishalri natijasi g'arbda Adriatika dengizidan sharqda Hindistongacha, shimolda Kavkaz tog'laridan janubda Nil daryosining o'rta oqimigacha cho'zilgan hududni qamrab olgan ulkan davlat vujudga keldi. Lekin Aleksandr o'zining bunday ulkan davlatini uzoq boshqara olmadi. U mil. avv. 323-yilda 32 yoshda Bobil shahrida vafot etdi. Aleksandrning o'limidan keyin uning ulkan davlati parchalana boshlaydi. Uning davlati 3 qismga Makedoniya, Suriya va Misrga bo'linib ketadi.

Xulosalar: Qadimgi Makedoniya tarixida Aleksandr Makedonskiyning o'rni buyuk hisoblanadi, U shu juda katta davlat barpo etdiki uning davlati bir tomonda Ahamoniylarning davlatiga ham o'xshab ketardi. Shu bilan birga ham davlar arbob, buyuk sarkarda hamda ana shunday buyuk imperiyaning podshosi hisoblanadi. U yoshlik chog'laridanoq davlatini boshqarish bilimlari, harbiy

bilimlar, sarkardalik bilimlarini o'rganadi. Aleksandr o'z davrining eng mashhur olimlaridan biri hisoblanadigan Aristotel (Arastu) ning shogirti hisoblanadi. U o'z davriga yarasha buyuk davlat tuza olgan yosh hukumdorlardan biri hisoblanadi. Aleksandrning O'rta Osiyo madaniyatida ham o'rni buyuk hisoblanadi. Shuni aytish lozimki Aleksandr ning yurishalari natijasida O'rat Osiyoga ellinizm kirib keladi. Bu esa mahalliy aholi madaniyatida muhim ro'l o'ynaydi. Makedoniyalik Aleksandrning dunyo tarixida tutgan o'rni katta hisoblanadi...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. R. Rajabov - "Qadimgi Dunyo tarixi" (Qadimgi Sharq) Toshkent - (Fan va texnologiya) 2009. 286 - 290 betlar.
2. A. Sagdullayev- "O'zbekiston tarixi" Toshkent -(Donishmand ziyosi) 2021. 200-202 betlar
3. A. Kabirov - " Qadimgi Sharq tarixi" Toshkent (Tafakkur) 2016. 276-280 betlar.